



Plastik kartochkalar

Yangilangan sana: Chr, Mart, 14, 2018

Plastik kartochka — bu o'z egasiga tovarlar va xizmatlar haqini naqdsiz to'lash, shuningdek banklar bo'linmalarida (filiallarida) naqd pul olish imkonini beruvchi shaxsiylashtirilgan to'lov vositasidir.

Kartalarning turlari:

- shaxsiy bank kartochkasi (jismoniy shaxslar uchun, so'mlik);
- korporativ bank kartasi;
- xususiy tadbirkorning milliy valyutadagi bank kartasi.

Plastik kartochkalardan foydalanish tartibi

Plastik kartochkalar naqdsiz hisoblarning zamonaviy va qulay vositasi hisoblanadi. Plastik kartochka orqali o'z pul mablag'larini boshqarish, tovar va xizmatlar uchun naqdsiz shaklda to'lovni amalga oshirish, bank bo'linmalarida va bankomatlar orqali naqd pullarni yechib olish mumkin.

Plastik kartochka orqali supermarket, do'konlar, xizmat ko'rsatish sohasidagi korxonalar, uyali aloqa korxonalarida, avia va temir yo'l kassalarida, avtomobil yoqilg'i quyish shoxobchalarida to'lovlarni amalga oshirish mumkin. Bundan tashqari, telefon abonent to'lovini, shaharlararo va xalqaro telefon qo'ng'iroqlar to'lovlari, kommunal xizmatlar to'lovlari amalga oshirish mumkin. Plastik kartochkalardan to'lovni qabul qiladigan elektron terminal bilan ta'minlangan har qaysi savdo shoxobchalarida kartalar orqali to'lovlarni amalga oshirish mumkin.

Bank plastik kartalari orqali xizmat ko'rsatish uchun, respublika bo'ylab savdo-xizmat korxonalarida, pochta aloqasi bo'limlarida, bank filiallari, minibanklari va jamg'arma kassalarida, shuningdek, aloqa, shu jumladan, uyali aloqa xizmatlari uchun to'lovlar qabul qiladigan shoxobchalarda terminallar o'rnatilgan.

Savdo-xizmat korxonalarida tovar va xizmatlar uchun to'lovlar amalga oshirilganda, plastik kartochka egalari (jismoniy shaxslar) dan komissiya to'lovlari olinmaydi

Bugungi kunda Toshkent shaxrining Bozor hududlarida, jumladan Yunusobod, Quyliq va Farxod dexqon bozorlarida Xalq banki bankomatlari (jismoniy shaxslar plastik kartochkalari orqali naqd chiqim qilishlari uchun) xizmat ko'rsatib kelayotganligini ma'lum qilamiz.

Infokiosk va bankomatlarning joylashuv manzillari to'grisida ma'lumot. Yuklab olish

([MS Excel 24 kb](#) ^[1])

Files:

Ilova

O'lchami

 [Yuklab olish \(PDF\)](#) ^[2] 177.89 KB

Links

[1] http://xb.uz/sites/default/files/infokiosk_manzil-27.11.2017.xlsx

[2] http://xb.uz/sites/default/files/page_files/xalq_bank_plast_reglament_2017.pdf